

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14518399>

**Rustamova Moxichexra Yaxshiboyevna**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi*

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,*

**Abdurahmanov Abbos Abdusattarovich**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi*

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,*

**Annotatsiya:** *Ushbu ma'ruzada axborot almashish jarayonlari va ularning Davlat boshqaruv tizimlari o'rtasida integratsiyani ta'minlash masalalari yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Axborot almashish jarayonlari, axborotni yig'ish, Davlat organlari, axborotni tahlil qilish, axborotni tarqatish, axborotni yangilash.*

**Аннотация:** *В данном отчете освещены вопросы обеспечения интеграции процессов обмена информацией и их системами государственного управления.*

**Ключевые слова:** *Процессы обмена информацией, сбор информации, государственные органы, анализ информации, распространение информации, обновление информации.*

**Abstract:** *In this report, the issues of ensuring integration between information exchange processes and their State management systems are highlighted.*

**Key words:** *Information exchange processes, information collection, State bodies, information analysis, information dissemination, information updating.*

Axborot almashish jarayonlari zamonaviy davlat boshqaruvi tizimlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu jarayonlar davlat organlari, davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali aloqalarni ta'minlash, shuningdek, fuqarolar va jamiyat uchun xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Axborot almashishning samaradorligi esa davlat boshqaruvining samaradorligi va shaffofligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Axborot almashish jarayonlari quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Axborotni yig'ish: Davlat organlari tomonidan turli manbalardan axborot to'planadi. Bu jarayon ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va saqlash jarayonidir. Axborotni yig'ishda jarayon ko'plab sohalarda, jumladan, veterinariya, biznes, ilm-fan, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarda muhim ahamiyatga ega. Axborotni yig'ishning bir necha asosiy bosqichlari mavjud:

1- Ma'lumotlarni aniqlash - qaysi turdagi ma'lumotlar kerakligini belgilash.

2 - Manbalarni tanlash - ma'lumotlarni qayerdan olishni aniqlash (so'rovnomalar, intervyular, statistik ma'lumotlar va boshqalar).

3 – Ma'lumotlarni yig'ish - tanlangan manbalardan ma'lumotlarni to'plash.

4 - Tahlil qilish - yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan foydali xulosalar chiqarish.

5 - Natijalarni taqdim etish - tahlil natijalarini taqdim etish va ulardan foydalanish.

2. Axborotni tahlil qilish: Yig'ilgan ma'lumotlarni o'rganish, ularni tushunish va ularning asosida xulosalar chiqarish jarayonidir. Bu esa qaror qabul qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Tahlil natijalari asosida strategiyalar ishlab chiqiladi. Bu jarayon bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin:

1- Ma'lumotlarni tozalash: Yig'ilgan ma'lumotlarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan xatolar, noaniqliklar yoki takroriy ma'lumotlarni aniqlash va ularni tuzatish.

2 – Ma'lumotlarni tasniflash: Ma'lumotlarni turli kategoriyalarga yoki guruhlariga ajratish. Bu bosqichda ma'lumotlar strukturalashtiriladi va tahlil qilish uchun tayyorlanadi.

3 - Tahlil usullarini tanlash: Tahlil qilish uchun mos usullarni (statistik tahlil, grafik tahlil, model yaratish va boshqalar) tanlash. Bu usullar ma'lumotlarning turiga va tahlilning maqsadiga qarab farq qiladi.

4 - Tahlil qilish: Tanlangan usullar yordamida ma'lumotlarni o'rganish. Bu jarayonda statistik hisob-kitoblar, grafiklar va vizualizatsiyalar yaratish orqali ma'lumotlarning asosiy tendentsiyalari va munosabatlarini aniqlash mumkin.

5 - Natijalarni talqin qilish: Olingan natijalarni tushunish va ularning ahamiyatini aniqlash. Bu bosqichda natijalar asosida xulosalar chiqarish va tavsiyalar berish amalga oshiriladi.

6 - Taqdimot va hisobot tayyorlash: Tahlil natijalarini boshqalar bilan baham ko'rish uchun taqdimot yoki hisobot shaklida taqdim etish. Bu jarayonda natijalarni aniq va tushunarli tarzda ifodalash muhimdir.

7 - Qaror qabul qilish: Tahlil natijalari asosida qarorlar qabul qilish yoki strategiyalar ishlab chiqish.

Axborotni tahlil qilish jarayoni ko'plab sohalarda, jumladan, veterinariya, biznesda, ilmiy tadqiqotlarda, sog'liqni saqlashda va boshqa sohalarda muhim rol o'ynaydi.

3. Axborotni tarqatish: Tahlil qilingan axborot davlat organlari o'rtasida, shuningdek, fuqarolar va veterinariya sub'ektlariga tarqatiladi. Bu jarayon ochiqlik va shaffoflikni ta'minlaydi.

4. Axborotni yangilash: Davlat boshqaruvi doimiy ravishda o'zgarayotgan sharoitlarga moslashishi kerak. Shu sababli, axborot yangilanib turilishi zarur.

Davlat boshqaruv tizimlari o'rtasida integratsiyani ta'minlash axborot almashish jarayonlarini yanada samarali qilish imkonini beradi. Integratsiya quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Texnologik integratsiya: Axborot almashishni ta'minlaydi. Bulutli texnologiyalar, ma'lumotlar bazalari axborot texnologiyalarining joriy etilishi davlat organlari o'rtasida tezkor va samarali va elektron xizmatlar bu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

2. Normativ-huquqiy integratsiya: Davlat boshqaruvi tizimlari o'rtasida axborot almashish uchun qonunchilik bazasini mustahkamlash zarur. Bu jarayonda axborot almashishning standartlari va qoidalari ishlab chiqilishi kerak.

3. Tashkiliy integratsiya: Davlat organlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish va bir-biriga bo'lgan ishonchni oshirish uchun tashkiliy strukturalar yaratish muhimdir. Bu masalalarda interaktiv platformalar va maslahat kengashlari tashkil etilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, axborot almashish jarayonlari va davlat boshqaruv tizimlari bilan integratsiyasini ta'minlash zamonaviy davlat boshqaruvining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarurdir. Bu jarayonlar nafaqat davlat organlari o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi, balki fuqarolar va veterinariya sub'ektlariga xizmat ko'rsatish sifatini ham oshiradi. Shunday qilib, axborot almashish jarayonlarini yaxshilash va davlat boshqaruv tizimlarini integratsiyalash orqali biz samarali va shaffof boshqaruvga erishamiz.

#### **FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni. Toshkent shahri, 2003-yil 11-dekabr № 563-11.

2. O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonuni. Toshkent shahri, 2003-yil 11-dekabr № 563- 11.

3. S. G'ulomov, R. Alimov va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. -T.: Sharq nashriyoti, 2000.

4. D. Karimova. Computer science. Information Technologies: the textbook. Part1, TSTU,-Tashkent, 2004.-241p.

5. M.M. Aripov, A.X. Yakubov, M.V. Sagatov, R.M. Irmuhamedova va boshqalar. Informatika. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. 1,2-qism. -Toshkent: TDTU, 2005.

6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborotni\\_uzatish](https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborotni_uzatish).

7. <https://lex.uz/docs/-1315264>